

**SIRDARYO VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI UNING
GEOKRIMINOGEN HOLATGA TA'SIRI**

Egamkulov Khusniddin Erkaboy o‘g‘li

Guliston Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi geografiya yo’nalishi

2-bosqich 8-19 MG magistranti

Karshibayeva Lolakhon Klichevna

Guliston Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrasi mudiri g.f.n. dots

Annotatsiya: Maqolada Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi, aholi soni, boshqa millat vakillarining ulushi, geokriminogen vaziyatlarning sodir etilishi bilan bog’liq ayrim ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Aholi, milliy tarkib, geokriminogen, giyohvandlik, demografik, bezorilik, bosqinchilik, mahkuma.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые сведения, связанные с национальным составом, численностью населения, далее представителей других национальностей, геокриминогенной ситуацией в Сырдарьинской области.

Ключевые слова: население, национальный состав, геокриминогенная ситуация, наркамания, демография, хулиганство, разбой, заключенная.

Annotatian: The article contains some information about the ethnic composition of the population of Syrdarya region, the number of people, the share of other nationalities, the occurrence of geocriminogenic events.

Key words: Population, ethnic composition, geocriminogen, addiction, demographic, bullying, invasion, convict.

Aholi Yer yuzasi yoki uning ma'lum bir qismida yashovchi kishilar guruhidir. Aholining hududiy joylashuvi xalq xo'jaligining joylashuvi hamda tuzilishiga bog'liq va aksincha, aholining joylashuvi, o'z navbatida xo'jalikni rivojlantirish hamda joylashtirishga bevosita ta'sir etadi.

Aholi soni doimiy o'zgarib turivchi dinamik ko'rsatkichdir 2020-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra Sirdaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni 846 260 kishini tashkil etgan holda, yil boshiga nisbatan 13,9 ming kishiga ko'paygan yoki 1,7 foizga o'sgan shu bilan birga shahar aholi soni 354,7 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 42,8%), qishloq aholi soni 475,0 ming kishini (57,2%) tashkil etgan[1].

Sirdaryo viloyati aholi soni bo'yicha Respublikamizda oxirgi o'rinni egallaydi. Aholi soni kam bo'lsa ham uning milliy tarkibi turlichadir, bunga asosan migratsiya ta'sirining kuchliligini ko'rishimiz mumkin. Sirdaryo viloyatida o'zbeklardan tashqari ruslar, tatarlar, tojiklar, koreyslar, qozoqlar, belaruslar, turkmanlar ham istiqomat qiladi.

Milliy tarkibning turlichaligi geokriminogen holatning ham turlarini ko'pligiga olib keladi.

Sirdaryo viloyati aholisi asosan boshqa xududlardan ko'chirib kelinlgan bo'lib, Mirzacho'lni o'zlashtirish maqsadida ishga jalb qilinib, uy joylar bilan ta'minlanib yashash uchun sharoitlar qilib berilgan va shu tariqa viloyat aholisi shakllangan.

Geokriminogen vaziyat jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o'rganish bilan birga, ayni paytda uning hududlarda yilning turli mavsum va vaqtlarida sodir etilishini, jinoyat sodir etgan shaxslarning sotsial demografik tarkibi hamda alohida turdagи jinoyatlarning sharoit va sabablarini ham tadqiq etadi[2].

jadval

2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Sirdaryo viloyatining milliy tarkibi

	Sirdaryo viloyati	Gulistonsh.	Shirinsh.	Yangiyersh.	Oqoltin	Boyovut	Sayxunobod	Gulliston	Sardoba	Mirzaobod	Sirdaryo	Xovos
Jami aholi	846260	90398	18726	43307	51967	129503	77157	72453	65885	73249	128174	95441
Shu jumladan												
o‘zbek	668762	69142	14721	30679	42319	113381	55566	63671	49830	68439	88491	72523
Qoraqalpoq	127	10	3	19	2	2	1	16	0	33	39	2
rus	22768	6552	1416	2521	599	881	1078	792	713	418	4304	3494
ukrain	926	189	85	8	173	77	33	107	71	35	111	37
belorus	398	61	22	7	18	38	14	55	17	21	94	51
qozoq	12915	1021	46	171	2928	439	3799	506	432	408	2549	616
Ozarbayjon	2874	599	16	120	48	217	125	126	64	72	1412	75
qirg‘iz	17757	561	132	166	761	460	570	426	12187	539	400	1555
tojik	78587	5824	1044	6919	2115	11033	11664	3430	1130	2220	19309	13899
turkman	716	95	43	53	28	111	112	120	21	14	86	33
tatar	5911	1278	438	153	276	471	495	628	280	196	1305	391
koreys	7910	1966	191	345	359	109	821	411	216	215	2769	508
Boshqa millatlar	26609	3100	569	2146	2341	2284	2879	2165	924	639	7305	2257

Manba: Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi.

Turli millat vakillari turli jinoyatlar sodir etmoqda. Masalan O‘zbekistonda jami o‘rganilgan mahkumlar milliy tarkibiga ko‘ra quyidagicha: o‘zbeklar — 72,3 foiz, tojiklar ~ 5,5 foiz, tatarlar 4,9 varuslar 4,3 %. Erkaklar orasida jinoyatning

o'g'rilik turi barcha millatlar orasida eng ko'p sodir etilgan. Shuningdek, o'zbek hamda tojik millatlari orasida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyat turlarining salmog'I yuqori. Rus mahkumlari tarkibida esa bezorilik hamda bosqinchilik jinoyatlari, tatarlarda odam o'ldirish yoki unga suiqasd qilish jinoyatining salmogi nisbatan katta. [3].

Sirdaryo viloyatida milliy tarkibi 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra o'zbeklar 79%, tojiklar 9.3%, ruslar 2.7%, tatarlar 0.7% ni tashkil qiladi[3].

Jinoyatchilikning asosiy qismini erkaklar sodir etadi, lekin ming afsuski bu holat ayollar orasida ham uchramoqda. Respublikamizdagi jami mahkumlardan farqli o'laroq, o'zbek, tojik hamda turkman millatlaridagi mahkumalaror asida giyohvandlik vositalari bilan *bog'liq*, jinoyatlarning salmogi juda yuqori. Masalan, jami o'zbek mahkumalarining yarmidanortig'i giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan. Bu ko'rsatkich tojik mahkumalarorasida 75 foiz, (Sirdaryo viloyatida 2020-yil so'nggi 10 oy mobaynida giyohvandlik bilan bog'liq bo'lgan 37 ta holatlar aniqlangan) [5]. Turkmanlarda esa 87,5 foizni tashkil etdi. O'z navbatida, o'rganilgan jami ayol mahkumalarning yarmidan ortiqg'i (52,4 %) giyohvandlik bilan bogliq jinoyatlarni sodir etgan. Bunda ular ayollik mavqyeidan garaz niyatda foydalanayotganlari kuzatiladi [3].

Ayol mahkumalar orasida giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar sodir etayotgan tojik millati vakillari respublikamizning turli hududlarida shu jumladan Sirdaryo viloyatida ham istiqomat qiladi. Sirdaryo viloyatining Guliston shahri, Yangiyer shahri, Shirin shahri, Sirdaryo shahri, Xovos tumani, Sirdaryo tumani, Boyovut tumanlarida istiqomat qilmoqda. Turkman millat vakillari Sirdaryo viloyatining Guliston shahri, Yangiyer shahri, Shirin shahri, Boyovut tumanida yashab kelmoqda.

Ayollar orasida o'grilik jinoyatini sodir etganlar *nisbatan* katta ko'satkichga ega (18,1%). Ta'kidlash lozimki, erkak mahkumlarga nisbatan ayol jinoyatchilar orasida odam o'ldirish va unga suiqasd qilish bir muncha ko'proq kuzatiladi. Shunday holatni voyaga yetmaganlar orasida ham kuzatish mumkin. Katta yoshdag'i jinoyatchilar kabi voyaga yetmaganlar orasida ham jinoyatning o'grilik turi eng ko'p

uchraydi (56,6%)[2].

Xulosa qilib aytganda Sirdaryo viloyati aholisi miqdori jihatidan unchalik ko'p emas, lekin milliy tarkib juda murakkab o'zbeklardan tashqari eng ko'p tashkil etuvchi millat vakillaridan: tojik va ruslar ko'pchilikni tashkil etadi. Milliy tarkib qanchalik murakkab bo'lsa, ular o'rtasida kelib chiqadigan mojoralar ham ko'p bo'ladi, o'z navbatida "serqatnov" yo'lni bo'yida joylashganligi, zichligi ham an'anaviy cho'lga mos kelmasligi, geokrimonogen vaziyatni vujudga kelishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xidiraliyev K.E., Egamqulov H.E. O'zbekistonning demografik imkonyatlari darchasi: baholash, chaqiriqlari va istiqbollari respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to'plami. Toshkent-2019 136-b.
2. Soliev A. O'zbekiston geografiya jamiyatining 7-sezdining materiallari. Toshkent, 23-24 noyabr. 2006.310-b
- 3.O'zbekistonda jinoyatchilikning ijtimoiy-geografik jihatlari Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati Toshkent 2006.
- 4.Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
- 5.Sirdaryo viloyati IIB ma'lumoti.